E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

NODAVLAT TA`LIM MUASSASALARIDA TA`LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sobirova Mohinur Ilhomjon qizi
Farg`ona davlat universiteti, Magistratura bo`limi
Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta`lim) yo`nalishi
21.02-guruh magistranti
Ilmiy rahbar: Xallokova Maksudaxon Ergashevna
Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat ta`lim muassasalarida, shu jumladan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qilinayotgan ishlarning jamiyatimizdagi o‘rni hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qonun, farmon va qarorlarning mohiyati bugungi kundagi ehtiyoj hamda bu boradagi tavsiyalar tahliliy bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy maktabgacha ta’lim, o‘qish, dunyoqarash, kelajak, milliy, an’anaviy, murabbiy, tarbiyachi, muassasa

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2020 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlaganidek, “Avvalgi uchrashuvlarda ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega” [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-son qarori qabul qilindi [2]. Shu qaror bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish buyicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dastur» ning asosiy maksadli vazifalari va yo‘nalishlari qatorida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta’lim

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Resspublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» PQ-3305-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga berilgan sharhda ta’kidlanganidek: «...bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar kamrovini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda» [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mazkur qarorda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan, shu jumladan, pedagog va rahbar xodimlarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish, ta’lim muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta’minlash belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizning yetakchi sohalarida klaster usulini keng joriy etish orqali samaradorlikka erishish choralari ko‘rilmoqda. Xususan, ta’lim-tarbiya sohasida ham “Ta’lim klasteri” ni joriy etish muhim vazifalardan sanaladi.

Mutaxassislarning fikricha, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Bunda, avvalo, ota-ona tarbiyasi birlamchi ahamiyat kasb etsa, keyingi bosqichda bog‘chadagi muhit bolaning dunyoqarishi kengayishi, olamni idrok etishida muhim omil bo‘lishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu bois, mamlakatimizda keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida ko‘lamdor ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sohada davlatxususiy sheriklikni rivojlantirish, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish, ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimi doimo davlatning e’tiborida bulmoqda. O‘tgan davr mobaynida sog‘lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta’minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta’lim tizimini tashkil qilish bo‘yicha kompleks tashkiliy- huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari (MTM) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi boskichida yordam berishga qaratilgan. Ayrim mutaxassislar bolalar bog‘chalariga hojat yuk, maktabgacha tarbiya esa to‘liq ota-onalar zimmasiga yuklatilsin va ularning o‘zlari bolani 1-sinfga qaerda va qanday qilib tayyorlash yo‘lini hal qilsinlar, deb ta’kidlaydilar [3].

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi taklif va tavsiyalar orqali tadbirlarni o‘tkazilishidan maqsad - bolada hamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy aytganidek qo‘shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo‘shiqchi qo‘llanilmaydi, musobaqa o‘tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g‘oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g‘olib emas. Shunday ekan biz bir jamoa bo‘lib maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha jipslashsak, kelajakda o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishishimiz shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “2017-2021- yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidag”gi qarori. -T.:2016 yil, 29-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori. 2019 yil 8 may.

3. Bola xuquqlari to‘g‘risida konvensiya / / inson xuquqlari bo‘yicha xalqaro xujjatlar /: V.A. Kartashkin,Ye.A. Lukasheva. M.: Infra-M, 2018

4. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. *Scienceweb academic papers collection*.

5. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). Корхона ва ташкилотларда ижтимоий ҳимояга муҳтож шахслар учун иш ўринларини йўналишлар кесимида захиралашнинг самарадорлигини ошириш. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78

WORDLY KNOWLEDGE